

Fanlar akademiyalarining xalqaro assotsiatsiyasi (MAAN) ilmiy kengashlarining II Qurultoyi

Bugun, 4-iyun kuni Shandun (XXR) shahrida Fanlar akademiyalarining xalqaro assotsiatsiyasi (MAAN) ilmiy kengashlarining II Qurultoyi o'z ishini boshladi. Qurultoyda O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupov, vitse-prezidentlar Shomansur Sagdullayev, Sirojiddin Mirzayevlar ishtirok etmoqda.



Qurultoy doirasida "Fanlar akademiyalari xalqaro hamkorligi va almashinuvlari" mavzusidagi konferentsiya bo'lib o'tmoqda. Unda O'zbekiston va Xitoy Fanlar akademiyalari o'rtasida 4 ta ilmiy hamkorlik loyihalari imzolanishi kutilmoqda.